

TURISTIK-REKREATSION ZONALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Umarova Mahliyo

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0002-3134-0852

mahliyoumarova9893@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turistik rekreatsion zonalarining turizm va xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rni va ahamiyati yoritib berildi va o'rganildi. Tanlangan mavzuni chuqurroq o'rganish maqsadida yurtimizning yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasini ko'rib chiqamiz. Maqolaning xulosa va takliflar qismida esa turistik-rekreatsion zonalar istiqboli va takliflari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: turizm, turistik zona, turistik-rekreatsion zona, yalpi ichki mahsulot, respublika darajasi, mahalliy daraja, erkin turistik zona, kichik turistik zona, maxsus turistik zona.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ТУРИСТСКО-РЕКРЕАЦИОННЫХ ЗОН

Умарова Махлиё

*Международный университет туризма и
культурного наследия «Шелковый путь»*

Аннотация. В статье освещаются и изучаются роль и значение туристско-рекреационных зон в сфере туризма и услуг. Для более глубокого изучения выбранной темы мы рассмотрим сектор услуг в валовом внутреннем продукте нашей страны. В разделе «Выводы и предложения» статьи представлены перспективы и предложения по развитию туристско-рекреационных зон.

Ключевые слова: туризм, туристическая зона, туристско-рекреационная зона, валовой внутренний продукт, республиканский уровень, местный уровень, свободная туристическая зона, малая туристическая зона, специальная туристическая зона.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF TOURIST AND RECREATIONAL ZONES

Umarova Makhliyo

"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage

Abstract. This article highlights and studies the role and importance of tourist and recreational zones in the field of tourism and service provision. In order to study the selected topic in more depth, we will consider the services sector in the gross domestic product of our country. The conclusions and proposals of the article present the prospects and proposals for tourist and recreational zones.

Keywords: tourism, tourist zone, tourist and recreational zone, gross domestic product, republican level, local level, free tourist zone, small tourist zone, special tourist zone.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risidagi" qonunining 4-bobi **"Turistik zonalar va turistik klasterlar"** deb nomlanib, unda keltirilishicha **turistik zona** bu Farmon (2022) Muayyan chegaralarga ega bo'lgan, bir yoki bir necha turistik resurslar (tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy, davolash-sog'lomlashtirish obyektlari, shuningdek, turistlar va ekskursantlarning ehtiyojlarini qanoatlantira oladigan boshqa obyektlar) joylashgan, kirish turizmini va ichki turizmni, turistik industriyani rivojlantirish, turistik resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish maqsadida tashkil etilgan hudud.

Turistik zonalar davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarning, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning taklifiga ko'ra tashkil etiladi.

Turistik zonalar tashkil etilish darajasiga ko'ra ikki gurugha bo'linadi va ular quyidagichadir:

- respublika darajasida;
- mahalliy darajada.

Turistik zonalarni aniqlashda ularda turistik resurslarning mavjudligi, shuningdek, ushbu hududlarning turizm turlarini rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlari inobatga olinadi.

Qurilayotgan turistik industriya obyektlarining mulkdorlari va (yoki) egalari turistik zonalarning hududlarida turistik resurslar barpo etilayotganda, shuningdek, ulardan foydalanilayotganda ushbu obyektlarning mavjud mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy muhit yoki boshqa tashkiliy-maqsadli muhitga va infratuzilma muhitiga uyg'unlashuvini nazarda tutishi shart.

Turizm sohasi subyektlari turistik zonalar hududlarida o'z faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda atrof tabiiy muhit, madaniy meros obyektlari hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni ta'minlashi shart.

Turistik zonalarda amalga oshiriladigan turistik faoliyat va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turistik zonalarni tashkil etish maqsadlariga monelik qilmasligi kerak.

Turizmni kompleks rivojlantirish va turistik resurslarni lozim darajadagi holatda saqlash, tegishli hududning turistik salohiyatini oshirish, shuningdek, ularni rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilinishini rag'batlantirish maqsadida turistik zonalarning quyidagi turlari tashkil etilishi mumkin:

- erkin turistik zona;
- kichik turistik zona;
- maxsus turistik zona.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotimiz davomida bir nechta mahalliy va xalqaro olimlar asarlari o'rganildi. Bu soha ko'plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda muhokama qilinadi, chunki u nafaqat turizm, balki geografiya, iqtisodiyot, ekologiya, ijtimoiy fanlar va boshqa ko'plab sohalariga ham aloqador. Quyida ba'zi olimlarning turistik-rekreatsioon zonalar haqidagi fikrlariga qisqacha to'xtalamiz:

Jumladan Tuxliyev, Safarov, Abduhamidov (2021) ozlarining Turizm nazariya va amaliyot kitobida¹, ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20% ini qamrab olganligi, o'sish sur'ati esa umumiy turizm industriyasining o'sish sur'atidan 2-3 marotaba oshib ketganligini ta'kidlab o'tishgan. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining mutaxassislari O'zbekistonning ekoturistik hududlari xaritasini ishlab chiqishgan. Xaritaga muvofiq, butun mamlakatimiz hududi XIV ekoturistik hududga ajratilgan. Har bir ekoturistik tumanga ekoturistik zona deb ham qarash mumkin. Ular jumlasiga Ustyurt, Orol va Orolbo'yi,

¹ <https://lib.bimm.uz/items/download/10305>

Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarkul, Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron, Farg'ona, Turkiston, Qashqadaryo, Hisor, Surxondaryo ekoturistik hududlari kiritilgan.

Kudryavtsev, Trabskaya, Xorevaning (2018) fikricha, turistik zona sayyohlar orasida eng ko'p talab qilinadigan yo'nalishning ma'lum bir qismi bo'lib, u milliy va jahon turistik bozorlariga olib boriladigan asosiy diqqatga sazovor joylarni o'z ichiga oladi.

Lebedev (2008) esa "bir yoki bir nechta hududda joylashgan va turizm sanoatining tarkibiy qismlari o'rtasida aloqa o'rnatish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi, ma'lum bir hududning barqaror va jadal rivojlanishini ta'minlash, fuqarolarning dam olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan turizm majmuasi"ni turistik zona deb ataydi.

Stepanova (2010) turistik zonaga "bir yoki bir nechta mintaqalar bilan chegaralangan va ko'rsatiladigan obyektlarning yuqori darajada zichligi, hu-dudning xususiyatlari, rivojlangan infratuzilma komponentining mavjudligi, iqtisodiy salohiyat, qulay tabiiy-iqlim omillari asosida turistik xizmatlar taklifi bilan shakllangan, transportdan foydalanishning yuqori darajasi, shuningdek, turizmni rivojlantirish bo'yicha tashqi va ichki dasturlarga turistik xizmatlarni joriy etish imkoniyatiga ega hudud", deb ta'rif beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishi mobaynida qiyosiy taxlil va tizimli qiyoslash, ekspert baholash kabi ko'plab usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turistik-rekreatsion zonalarining xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rnini aniqlash uchun yurtimizning yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasini ko'rib chiqamiz. Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston iqtisodiyoti 2024 yilda 6,5 foizga o'sdi. Ya'ni yalpi ichki mahsulot hajmi 1 kvadrillion 454 trln so'm yoki 114,9 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichning aholi jon boshiga taqsimlanishi 39,1 mln so'm yoki 3093 dollarga yetdi.

Albatta xulosa chiqarish uchun bir yillik statistika ma'lumotlari kamlik qiladi. Shuning uchun oldingi yillar faktlarini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti besh yillik dinamokasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u quyidagichadir (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot dinamikasi²

² 2024 yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti qariyb 115 mlrd dollarga yetdi

Yuqoridagi chizmaga qaraydigan bo'lsak (1-rasm) ijobiy ko'rsatkich, ya'ni 2020-yildan 2024-yilgacha yalpi ichki mahsulotning 668 038.0 trln so'mdan 1 kvadrillion 454 573.9 trln so'mga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Endi aynan bir xil davr bo'yicha O'zbekiston Respublikasi YaIM dinamikasini AQSH dollari bo'yicha ko'radigan bo'lsak u quyidagichadir (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi YaIM dinamikasi AQSH dollari bo'yicha (mlrd. AQSH dollari)³


Yuqorida keltirilib o'tilgan ma'lumotlarga tayangan holda aholi jon boshiga hisoblangan YaIM hajmi o'rganilayotgan davr mobaynida qanday sur'atlarga o'zgarganligini quyidagi 3-rasmda ko'rishimiz mumkin.




3-rasm. Aholi jon boshiga YaIMni o'sish (kamayish) sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foizda)

Yuqoridagi 3-rasmdan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, 2024-yilda aholi jon boshiga hisoblangan YaIM hajmi 39 mln 131 ming so'mni yoki 3092,7 AQSH dollarini tashkil etgan. 2024 yilda aholi jon boshiga YaIM hajmining real o'sishi 2023 yilga nisbatan 4,4 foiz, 2020 yilga nisbatan esa 19,5 foiz bo'lgan.

³ 2024 yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti qariyb 115 mlrd dollarga yetdi



Manashu o'rganilayotgan besh yillik davr mobaynida xizmat ko'rsatish sohasining va boshqa ko'plab sohalarning YaIMdagi ulushi quyidagi 4-rasmda o'rganilib, tahlil qilib chiqilgan.



4-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

Yuqoridagi 4-rasmdan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ko'plab iqtisodiy sohalar ichida xizmat ko'rsatish faoliyatini yalpi ichki mahsulotda ulushini taqqoslab ko'radigan bo'lsak yuqoriqoq ekanligini kuzatishimiz mumkin. Xizmat ko'rsatish sohasidan jeyingi o'rinda sanoat yo'nalishining ulushi ko'zga ko'rinarlidir. O'z navbatida keyingi yo'nalishlar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hamda qurilish sohasidir. Ahamiyatlisi shundaki, yildan-yilga xizmat

ko'rsatish sohasining ulushi o'sib borgan, aniqroq qilib aytganda 2020-yilda 41.6 foizdan 2024-yilda 47.4 foizga yetgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, Yurtimiz iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishida turizmning o'zni mustahkamdir va o'z navbatida turistik-rekreatsion zonalar ushbu faoliyatda o'z ahamiyatlilik darajasiga ega. Yana shuni ham takidlash kerakki, bunday zonalar nafaqat turizmni rivojlantirishga yordam bermoqda, balki madaniy va iqtisodiy sohalar uchun ham ahamiyatlidir.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, turistik-rekreatsion zonalar turizm faoliyati rivojida ya'ni turizm xizmatlari orasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Shuni ham ta'kidlash kerakki mana shunday turistik resurslarning turlarini kengaytirish va ularni son va sifat jihatdan yuksaltirish Barqaror turizmning muhim poydevorini yaratadi. Ya'ni turizmning nafaqat bir turdagi yo'nalishiga balki, ko'plab turdagi yo'nalaishlariga e'tibor qaratish deylik, sport turizmi, madaniy turizm, agroturizm, gastronomiya turizmi va boshqalar. Bu orqali, faqat bir turdagi turizm yo'nalishiga suyanib qolishlikdan qochish mumkin. Yokida bu yo'l bilan faqat bir turdagi mijozlarga suyanishni qisqartirish mumkin.

Bundan tashqari maqolaning tahlil va natijalar qismida xizmatlar sohasining yurtimiz iqtisodiyotining asosiy qismini tashkil etishining guvohi bo'ldik. Bu shuni keltirib chiqaradiki, turizm sohasidagi rivojlanish davlat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turistik zonalar yurtimizda istiqbolli turizmning yangi yo'nalishi hisoblanadi. Viloyatlardagi salohiyat o'rganib chiqilganda ham turistik zonalar uchun yetarlicha imkoniyatning mavjudligi aniqlandi.

Xulosa o'rnida bugungi kunda, Butunjahon turizm tashkiloti ekologik jihatdan mas'uliyatli turizmni rivojlantirishni tavsiya qilmoqda va bu ayniqsa, Samarqandning go'zal tabiati va tarixiy joylari uchun dolzarb mavzudir. Sayyohlik zonalarini ekologik toza saqlash, qayta ishlash imkoniyatlarini yaratish orqalibiz nafaqat atrof-muhitni himoya qilamiz, balki sayyohlar uchun qulay va yoqimli sharoitlar yaratiladi.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-son.

Tuxliyev I.S., Abduhamidov S.A. (2021) "Turizm nazariya va amaliyot" darslik.

Кудрявцев Н.С., Трабская Ю.Г., Хорева Л.В. (2018) Туристские зоны как новый элемент развития и продвижения дестинации на национальный и мировой рынки услуг. //ЭКОНОМИКА ПРЕДПРИЯТИЙ, РЕГИОНОВ И ОТРАСЛЕЙ, 24.09.2018. С. 122.

Лебедев А.В. (2008) Особые экономические зоны как механизм социально-экономического развития региона. // Современная Россия: проблемы социально-экономического и духовнополитического развития, Всероссийская науч.-практ. конф. (2008; Волгоград). Всероссийская научно-практическая конференция «Социальная технологизация в современной России», 5 мая 2008 г.: [материалы] / отв. ред. А.А.Огарков. Ч. I. –М.; Волгоград: ООО «Глобус».

Степанова С.А. (2010) Развитие туристского комплекса региона на основе повышения инвестиционной привлекательности туристско-рекреационных территорий: автореф. дис. ... д-ра эк. наук. –Санкт-Петербург: СПбГИЭУ, С. 9.